



BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O`QITISH METODIKASI

Ruziyeva Shahnoza

*Qarshi Davlat universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o`qitish(ingliz tili) yo`nalishi 3-bosqich talabasi*

Tel: +998 90 887-02-19

e-mail: shakhina0219@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini oson va qiziqarli o`qitish metodlari atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining qiziqishlari inobatga olingan holda dars o`tish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so`zlar: “Quvnoq topishmoqlar” (Merry riddles), “Tezkor javob” (Quick answers), “Chigil yozdi” (Warm-up exercises), “Pantomima” (Pantomime), “Hikoya zanjiri” (A chain story).

Zamonaviy boshlang`ich ta`limdagi eng asosiy va ijobiy o`zgarishlarga sabab bo`lgan qarorlardan biri bu O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o`rganish umumiy o`rta ta`lim maktablarining 1-sinflaridan o`yin tarzidagi darslar va og`zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o`qish va grammatikani o`qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko`ra, Chet tillarni o`rganishni yanada rivojlantirish bo`yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta`lim sohasining barcha yo`nalishlarida beqiyos ko`lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o`quv yilidan e`tiboran umumta`lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o`yin tarzidagi mashg`ulotlar va og`zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o`rgatish yo`lga qo`yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo`ljallangan darslik hamda o`quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o`yin-mashg`ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibligi ta`minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so`zlarni dialog shaklida Biz bilamizki, hozirgi ta`lim jaroyonida o`quvchi sub`ekt bo`lishi lozim. Bunda ko`proq interfaol metodlarga e`tiborni qaratish ta`lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo`yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o`qituvchilari Amerika Qo`shma Shtatlari,



Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

“*Quvnoq topishmoqlar*” (*Merry riddles*) o’quvchilarga topishmoqlar o’rgatish. Ingliz tilini o’rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o’zlariga notanish bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va o’ylab topishmoq javobini topadilar.

“*Tezkor javob*” (*Quick answers*) o’tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

“*Chigil yozdi*” (*Warm-up exercises*) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish.

“*Pantomima*” (*Pantomime*) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o’quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi.

“*Hikoya zanjiri*” (*A chain story*) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi.

“*Rolli o’yinlar*” (*Acting characters*) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin.

“*Rasmlar so’zlaganda*” (*When pictures speak*) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

“*Kviz kartochkalari*” (*Quiz cards*) o’quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o’quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

“*So’z o’rnini top*” o’yinida so’zlarning o’rni almashtirib qo’yiladi hamda so’zlarni o’z o’rniga to’g’ri qo’yish orqali gap hosil qilinadi.

“*To’plam*” o’yini ma’lum bir mavzu asosida o’quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o’tkaziladi. O’yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, belgini bildirgan so’zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi. Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko’p topa olsa g’olib bo’ladi. Multfilmlar. Bolalar chet tilini o’rganish mobaynida



multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda.

"Rasmlı" o'yin. O'quvchilar Present Continuous tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmlı o'yinni qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not.

Yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishning eng muhim jihatlaridan biri bu qiziqarli va ijodiy o'quv muhitini yaratishdir. Aksariyat bolalar uchun ingliz tilini o'rganish ularning o'rtacha kunidagi navbatdagi mashg'ulotdir. Yosh o'quvchilar uchun qiziqarli o'qitish usullarimavjud bo'lib, bular:

- darslarni qo'shiqlarga aylantirish;
- yangi lug'atni tasvirlash uchun vizual diagrammalar yaratish;
- grammatik qoidalarni eslab qolish uchun mnemonik qurilmalarni rag'batlantirish;
- dars davomida o'z-o'zidan yoki izchil dialoglarni to'qish;
- yakka o'quv mashg'ulotlarini o'yinlar bilan to'xtatish;
- rollı o'ynash orqali lug'atni ko'rib chiqish. O'yin o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotga kirishishga bo'lgan qiziqishlarini faollashtiradi, nutqiy hamkorlikka bo'lgan tenglikni yaratib beradi, xamda ular o'rtasidagi an'anaviy psixologik to'siqni olib tashlashga imkon beradi. Rolli o'yinlar o'quvchidagi uyatchanlik, o'ziga ishonchsizlik xissiyotlari ustidan g'olib chiqish, shu bilan birga o'zida ingliz tilida so'zlashish qobiliyati borligiga ishonch hosil qilishiga imkon beradi. Oddiy suhbat va munozaralarda ko'proq tilni yaxshi biladigan o'quvchilar faol ishtirok etadi. Uyatchan o'quvchilar esa suhbatga aralashmay o'zlarini chetga tortadilar. Rolli o'yinlarda har bir o'quvchiga rollar bo'lib beriladi va nutqiy muloqotda har birining faol ishtirok etishi talab etiladi. Amalda rollı o'yinlarda barcha o'qitish jarayonlari nutqiy faoliyatga qaratilgan bo'ladi. Bunda nafaqat so'zlayotgan, balki uni tinglayotgan o'quvchining ham faol bo'lishi, ya'ni o'z suhbatdoshini tushuna olishi va uning savoliga to'g'ri javob bera olishini talab



qilinishi lozim. O'quvchi o'yinlarni ingliz tilida o'ynasagina ingliz tiliga qiziqishiortadi, shu bilan birga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganadi. Bolalar o'quv jarayoniga o'yinlar va qiziqarli tadbirlar jalb qilinganda yaxshiroq o'rganadilar. 'Scrabble' kabi oddiy stol o'yinlari, 'Hangman' kabi onlayn o'yinlar yoki 'Wordpower' kabi ilovalar bolaning ingliz tilini yaxshilash va eshitish usuli orqali unga imlo va talaffuzni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ikkinchi tilni o'rganish o'sib kelayotgan yoshlar uchun yaxshi kelajak qurishga imkoniyat yaratadi. Maktab va bog'cha yoshdagi o'quvchilarni ikkinchi tilni o'rganishga qiziqtirish va imkoniyat yaratish yaxshi kadrlarni yetishib chiqishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda "Ta'lim muassasalarida chet tillarining o'qitishni yanada takomillashtirish"
2. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi T.,-2003-yil
3. Bekmuratov U. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.//Toshkent. 2012
4. Erkinov S. Boshlang'ich sinflarda chet tili o'qitish metodikasi.//SamDCHTI. 2019